

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Ro'yhatga olindi: BD -5110600-3.03

2018 - yil "18" 08

ARXELOGIY. ETNOLOGIYA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar
Ta'lif sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lif yo'nalishi:	5110600 - Tarix o'qitish metodikasi

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashning 2014-yil  
"18" 08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2014-yil  
"15" 08 dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

#### Tuzuvchilar:

**Karimova D.O.** Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi va tarix o'qitish metodikasi" kafedrasi tarix fanlari boyicha falsafa doktori

**Atadjanov Sh.** - TDPU, "O'zbekiston tarixi va tarix o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti

**Raxmatullaeva A.** - TDPU, "O'zbekiston tarixi va tarix o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, t.f.n.

#### Taqrizchilar:

J.X.Ismailova- O'zRFA, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor

A.A.Musakayeva - O'zRFA, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi bo'lim boshligi, tarix fanlari nomzodi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2014- yil  
18 dagi 4-sonli bayonnomasi)

## I. O'quv fanining dolzarbliji va oliv kasbiy ta'limdagi o'rni

"Arxeologiya. Etnologiya" fanlari predmeti, maqsad va vazifalari, moddiy va ma'naviy madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlar taraqqiyotining ilmiy vaamaliy ahamiyati kabi masalalar ushbu dasturda ochib beriladi. Dasturda tarixning hali yozuv kashf etilmagan va yozma manbalar asosida yoritish mumkin bo'lmagan davrlarini arxeologik manbalar asosida organish, shuningdek dunyodagi qadimiy sivilizasiyalarning rivojlanishi, eng qadimgi tarixni davrlashtirish masalalari, kishilik jamiyatining paydo bo'lishi, odamzodning dastlabki mehnat qurollari, mashg'ulotlari, makonlari, uning qadimgi davr, o'rta asrlar davri tarixi va madaniyatini o'rganish masalalari ilgari surilgan.

Eng qadimgi davrlaridan to o'rta asrlargacha bo'lgan bosqichda rivojlanib borish jarayonlarini, muhim ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va etno-madaniy hayotga doir tafsilotlarini moddiy manba materiallari asosida talabalarga tushuntirish orqali ularda moziyga hurmat, Ona-Vatan va uning xalqiga mehr-muhabbat, istiqlol g'oyalalariga sadoqat ruhida tarbiyalash va yosh avlod onggi, dunyoqarashida bu tuyg'ularni shakllantirishdan iborat.

Jahon xalqlari, shuningdek, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixini moddiy manba obyektlari-arxeologik yodgorliklar: ilk odamlarning yashagan g'or va ungurlari, ko'l va daryo irmoqlari bo'yida qad ko'targan ibtidoi jamoa davri maskan va manzilgohlari, qadimgi qishloq va shahar harobalari, mozor-qo'rg'on va ibodatxona qoldiqlari, qadimgi irrigaciya inshootlari va me'moriy ob'ektlarda arxeologik qazishmalar o'tkazish jarayonida to'plangan boy ashyoviy dalillar arxeologik materiallarning tavsifi va ilmiy taxlili asosida yaratilgan tarix haqida, ajdodlarimizning madaniy merosi va mafkuraviy dunyosi haqida talabalarga chuqur bilim berishdan iborat.

Shuningdek, Etnologiya fani dasturi fanning tarixi, istiqboli, nazariy muammolari va maktablari, madaniy antropologiya, sotsial antropologiya, etnos, etniklik, etnogenez, etnik tarix, etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlar, an'anaviy moddiy, ma'naviy madaniyat, primordializm, kostruktivizm, neoevolyutsionizm va etnologiyadagi yangi kontseptsiyalarni o'rganadi. Unda dunyo xalqlarining antropologik, geografik, lingvistik va boshqa jihatdan klassifikatsiyasi, o'zbek xalqlari etnologiyasi tarixi va istiqboli, o'zbek xalqi etnologiyasi, klasifikatsiyasi, etnogenez muammolari va etnik tarixi, dunyo xalqlarining etnik shakllanishi, an'analari, urf-odatlari, diniy qarashlari, kiyim-kechaklari, oila, ijtimoiy munosabatlar, xalq og'zaki ijodi, adabiyot, san'at, ta'lif, jahon xalqlari hunarmandchiligi masalalari aks etgan. Etnologiya fanining asosiy tushunchalari, uning muhim tadqiqot metodlari, ilmiy kontseptsiyalari va fani ilmiy gipotezalari, etnologiya fani tarixi bilan tanishtirishdan, dunyo aholisining zamonaviy etnik tarkibi va etnik tarixi hamda turli tarixiy-geografik mintaqalar bo'yicha joylashuvi, dunyo xalqlari an'anaviy madaniyatining o'ziga xos jihatlarini keng ilmiy materiallар asosida yetkazishdan iborat mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish, jahondagi xalqlarni, elatlarni yashash tarzini, etnik jihatdan xilma xilligini o'rgatish, har bir xalqning o'zining muayyan diniy tasavvurlari mavjudligini o'rgatish, jahon xalqlarini tabiiy geografik joylashishini o'rgatish,

jahon xalqlarini xalq, elat sifatida tarqalishidagi o'xshashliklar masalalarini tahlil qilish, jahondagi Okeaniya, Afrika, Osiyo, Amerika xalqlari etnogenezini qiyosiy tahlil qilish nazarda tutilgan.

## II. O`quv fanining maqsadi va vazifasi

“ArxeologiY. Etnologiya” fanining maqsadi va vazifasi sifatida tarixni, ibtidoi davrlaridan to o'rta asrlargacha bo'lgan bosqichda rivojlanib borish jarayonlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va madaniy hayotga doir muhim masalalarni moddiy manba materiallari asosida talabalarga tushuntirish orqali ularda moziyga hurmat, Ona-Vatan va uning xalqiga mehr-muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash va yosh avlod ongi, dunyoqarashida bu tuyg'ularni shakllantirish, jahon xalqlari, shuningdek, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixini moddiy manba ob'ektlari-arxeologik yodgorliklar; ilk odamlarning yashagan g'or va ungurlari, ko'l va daryo irmoqlari bo'yida qad ko'targan ibtidoi jamoa davri maskan va manzilgohlari, qadimgi qishloq va shahar harobalari, mozor-qo'rg'on va ibodatxona qoldiqlari, qadimgi irrigaciya inshootlari va me'moriy ob'ektlarda arxeologik qazishmalar o'tkazish jarayonida to'plangan boy ashyoviy dalillar-arxeologik materiallarning tavsifi va ilmiy taxibili asosida yaratilgan tarix haqida, ajdodlarimizning madaniy merosi va mafkuraviy dunyosi haqida talabalarga chuqur bilim berishdan iborat.

“Arxeologiya. Etnologiya” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- qadimiy sivilizasiyalarining rivojlanishi, eng qadimgi tarixni davrlashtirish masalalari, kishilik jamiyatining paydo bo'lishi, odamzodning dastlabki mehnat qurollari, mashg'ulotlari, makonlari, uning qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi hamda shu davrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida; “Etnologiya” fanning tarixi, istiqboli, nazariy muammolari va maktablari, madaniy antropologiya, sotsial antropologiya, etnos, etniklik, etnogeneze, etnik tarix, etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlar, an'anaviy moddiy, ma'nnaviy madaniyat, primordializm, kostruktivizm, neoevolyutsionizm va etnologiyadagi yangi kontseptsiyalari haqida *bilimga*;

- talaba mustaqil ish, laboratoriya ishi va arxeologik amaliyot jarayonida arxeologiya yodgorliklarini tashqi ko'rinishiga qarab, ularning turlari va tiplarini aniqlash; “Etnologiya” fanning tarixi, istiqboli, nazariy muammolari va maktablari, madaniy antropologiya, sotsial antropologiya, etnos, etniklik, etnogeneze, etnik tarix, etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlar, an'anaviy moddiy, ma'nnaviy madaniyat, primordializm, kostruktivizm, neoevolyutsionizm va etnologiyadagi yangi kontseptsiyalari haqida *ko'nikmaga*;

- har bir davrning o'ziga xos yodgorliklarini turini va ularning tabiiy-geografik joylashish o'rinnarini, ulardan qanday qilib mavzuga xos tarixiy informaciyalar olish va o'z pedagogik faoliyatida ulardan samarali foydalana bilish; Etnologiya jarayoni o'rganilishidagi xalqlar, an'anaviy mashg'ulotlar va xo'jalik faoliyati masalalariga e'tibor berish, qadimiy kiyim kechaklar, bezaklar, taqinchoqlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak, jahon xalqlarining

geografik klassifikatsiyasi, lingvistik klassifikatsiyalar haqida nazariy va amaliy *malakasiga ega bo‘lishi kerak*.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)**

#### **1-modul. “Arxeologiya” fani va uning vazifalari**

##### **1-mavzu: “Arxeologiya” faniga kirish**

Arxeologiyaning tarix fanini tarkibiy qismi sifatida shakllanishi va rivojlanishi. Arxeologik va yozma manbalar o‘rtasidagi farq. Arxeologik yodgorliklar va ularning turlari. Arxeologik tadqiqot uslubiyati. Arxeologik madaniy qatlam. Arxeologik sana va davrash. Tarixiy va arxeologik davrlashtirishning o‘zigaxos xususiyatlari. Arxeologiya fanining gumanitar va tabiiy fanlar bilan aloqalari. Arxeologik tadqiqotlar bilan bog‘liq eng yirik kashfiyotlar va ularning jahon tarixi va madaniyatini o‘rganishdagi ahamiyati. O‘zbekistonda arxeologiya fanining taraqqiyot bosqichlari. Hozirgi bosqichda arxeologiya fani oldida turgan vazifalar va muammolar.

##### **2-modul. Paleolit davri va uning o‘rganilishi.**

###### **2-mavzu: Paleolit davri va uning o‘ziga xos xususiyatlari.**

Paleolit so‘zi ma’nosи, sanasi. Paleolit davrining bosqichlari. Paleolit davri va uning o‘rganilishi. Insoniyat tomonidan yer yuzining o‘zlashtirilishi. Kishilik tarixining Olduvay bosqichi. Ashel’ davri. Ilk, o‘rta va so‘nggi paleolit davri xususiyatlari. Tosh qurollari. Kertma texnika. Mustye bosqichi. Diniy tasavvurlarning ilk ko‘rinishi. Yuqori paleolit. Tabiiy iqlimning o‘zgarishi. Bu davrning hayvonot va o‘simgiliklar dunyosi. Yuqori paleolit davri odamlari hayotida yuz bergen buyuk o‘zgarishlar va ibtidoiy jamoatchilik tarixining boshlanishi.

###### **3-mavzu: Paleolit davri yodgorliklari va ularning o‘rganilishi.**

Selungur O‘rtaOsiyodagi eng qadimgi ajdodlar manzilgohi. Ferganatrop. Ko‘lbuloq makoni. Teshiktosh must‘e davrining noyob yodgorligi. Obirahmat g‘or makoni, Obirahmat-2004 odami, Xo‘jakent manzilgohi, Omonqo‘ton g‘or makoni, Takalisoy g‘ori, Qo‘tirbuloq makoni, Zirabuloq makoni, Go‘rdara g‘or makoni, Qopchig‘ay ustaxonasi, Uchtut yodgorligi. Yuqori paleolit davri yodgorliklari. Samarqand makoni, Siyobcha qarorgohi, Xo‘jamazgil qarorgohi, Bo‘zuv. Uzoq Sharq va janubiy-sharqiyan Osiyo tosh davri yodgorliklari.

##### **3-modul. Mezolit davri va uning o‘rganilishi**

###### **4-mavzu: Mezolit davri va uning o‘ziga xos xususiyatlari.**

Mezolit so‘zi ma’nosи, sanasi. Mezolit davrining bosqichlari. Azil, Tardenuaz. Mezolit davrida tabiiy iqlim sharoiti. Mezolit davrida yuz bergen buyuk kashfiyotlar. Mezolit davri mehnat qurollari. O‘q-yoyning kashf etilishi. Urug‘chilik tuzumi va aholining turmush tarzi. Mezolit davrida tasviriy san‘at. Qoya tosh suratlari va ularning diniy, ma‘rifiy va ilk estetik tasavvurlar ob‘ekti ekanligi.

### **5-mavzu: Mezolit davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.**

Mezolit davri yodgorliklari xarakteristikasi. Ko'shilish, Obishir, Machay, Ayrtom yodgorligi. Ilk mezolit davri yodgorligi - Qo'shilish makoni. Obishir I va Obishir V g'or-makonlari. Machay g'or makoni mezolitning so'nggi bosqichiga oid yodgorlik.

### **4-modul. Neolit davri va uning o'rganilishi**

#### **6-mavzu: Neolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.**

Neolit so'zi ma'nosi, sanasi. Neolit davrining bosqichlari. Neolit davri va uning o'zigaxos xususiyatlari. Neolit davrida jamiyatlar har xil taraqqiyot darajalarida bo'lganlar . "Neolit inqilobi"- dehqonchilik va chovvachilik. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik. Tosh qurollari va ularning ishlash texnikasi - silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash. Makrolit qurollari. Mehnat qurollari va ularning turlari. Neolit davri aholisi xo'jaliligi. Kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik.

#### **7-mavzu: Neolit davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.**

O'rta Osiyoda neolit davri jamoasi rivojlanishining 2 xil ko'rinishi. Joytun madaniyati. Kaltaminor madaniyati. Kaltaminor madaniyati yodgorliklarning bosqichlari. Hisor madaniyati, Daryoliso yodgorliklari, Jonbos-4 makoni, Tolstov manzilgohi, Tumek-kichidjik qabrstoni, Darvozaqir I makoni, Sazag'on madaniyati, Markaziy Farg'ona neolit yodgorliklari. Uchtut shaxtasi. Evropa, Afrika va Osiyo xududida neolit.

### **5-modul. Eneolit davri xususiyatlari**

#### **8-mavzu: Eneolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.**

Eneolit so'zi ma'nosi, sanasi. Misning kashf etilishi va undan mehnat qurollari yasashning ixtiro qilinishi. Mehnat qurollari ishlab chiqarishda metallning kashf etilishi. Eneolit (mis-tosh) davrining boshlanishi. Ilk metall buyumlar. Misga ishlov berishning 4 bosqichi. Ishlab chiqarishga asoslangan eneolit davri jamoalari xo'jaligida inqilobiy o'zgarishlar. Hunarmandchilik va uning tarmoqlari. O'rta Osiyoda eneolit davri yodgorliklari. Eneolit davri yodgorliklarning davrlashtirish. Nomozgoh-1—ilk eneolit davri, Namozgoh-2—o'rta eneolit davri, Namozgoh-3—so'nggi eneolit davri yodgorligi. Zarafshon vohasida joylashgan eneolit davri yodgorliklari; Sarazm va Zamombobo madaniyatlari. Mesopotamiyada shahar madaniyatining vujudga kelishi (shahar-davlatlar Kish, Lagash, Nippur, Ur, Mari shahar davlatlari). Evropa, Afrika va Osiyo xududida eneolit.

### **6-modul. Bronza davri va uning o'rganilishi**

#### **9-mavzu: Bronza davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.**

Bronzaning kashf etilishi. O'rta Osiyoda dehqonchilik vaxonaki chovvachilikning rivojlanishi. Birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti. Bronza davri xo'jaligining eng katta yutug'i. Dehqonchilikning chovvachilikdan ajralib chiqishi. Zardushtiylik dinining ilk ko'rinishlari. Ko'mish marosimlar va urf-odatlar.

## **10-mavzu: Bronza davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.**

Sopollitepa va Jarqo'ton. Ilk shahar. Ilk davlatchilik belgilari. Hunarmandchilik va uning tarmoqlari. Bronza davridagi cho'l zonasini qabilalari. Tozabog'yob. Qayroqqum va Suvyorgan madaniyatlarini va ularning kelib chiqish. Andronova madaniyati. Mezoamerika arxeologik yodgorliklarining o'rganilishi. Inklar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Kusko, Kotos va boshqalar. Evropa, Afrika va Osiyo xududida bronza davri.

## **7-modul. So'nggi bronza va ilk temir davri.**

### **11-mavzu: So'nggi bronza va ilk temir davrining o'ziga xos xususiyatlari.**

So'nggi bronza va ilk temir davriga O'zbekistonda o'troq dehqonchilik madaniyati. Zarafshon va Qashqadaryo hududida Sug'diyona, Amudaryoning quyoiqimida Xorazm, Sirdaryoning yuqori havzasida qadimgi Farg'ona va uning o'rtaoqimida Choch dehqonchilik madaniyatlarini markazlari. Temirning kashf etilishi va jahon madaniyatini rivojlanishidagi ahamiyati. Dam berish usuli. Bosqonli qo'ra. Dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi.

### **12-mavzu: So'nggi bronza va ilk temir davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.**

Qadimgi Xorazmda Amirabod madaniyati. Qadimgi Farg'onada Chust madaniyati. Dehqonchilik, chorvachilik vaxunarmandchilik turlari. Chust madaniyatining o'zigaxos xususiyatlari. Elatan madaniyati. Toshkent vohasida Burgulyuk madaniyati. Baqtriyada Kuchuktepa, Mirshodi makoni, Qiziltepa kabi so'nggi bronza davri va ilk temir davri yodgorliklari. Sug'dda bronza va ilk temir davri yodgorliklari. Ko'chmanchi chorvador qabilalarning dehqonchilik vohalariga kirib kelishi. Evropa, Afrika va Osiyo ilk temir davriga.

## **8-modul. Qadimgi davr madaniyati**

### **13-mavzu: Qadimgi davrining o'ziga xos xususiyatlari**

Qadimgi davrining bosqichlari. Qadimgi davr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Axmoniyalar madaniyatining jahon madaniy taraqqiyotiga ta'siri. Gretciya va Rim madaniyatining jahon madaniy taraqqiyotiga ta'siri. Dehqonchilikning rivoji. Omoch va so'qa. Qo'l tegrimoni. Sopol buyumlari ishlash texnikasi. Amfora, pifos. Shisha buyumlari ishlab chiqarish. Yunonlar va rimliklarda kitoblar. Papirus va pergament. Derazaoyna ixtirosi. O'rta Osiyonning arxaik davr arxeologik yodgorliklari. O'rta Osiyoda ilk davlatlar.

## **14-mavzu: Qadimgi davr yodgorliklari va ularning o'rganilishi.**

Qadimgi Xorazm yodgorliklari - Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Oybuyirqal'a va Dingilji qo'rg'onlari. Arxaik davrda Surxondaryo yodgorliklari - Bandixon, Qiziltepa, Kuchuktepa, Qashqadaryo yodgorliklari - Daratepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir yodgorliklari. Amudaryo xazinasi.

O'rta Osiyoda ellinizm. Qadimgi Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm, Farg'ona, Choch va Iloqdaantik davr shahar va qishloqlari. Shahar me'morchiligi.

Hunarmandchilik taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari. San'at, diniy e'tqodlar va ularning aholi turmush tarzida aks etishi. Skif va saklar madaniyati. Evropa, Afrika va Osiyo qadimgi davri.

### **9-modul. O'rta asrlar davri madaniyati**

#### **15-mavzu: O'rta asrlar davrining o'ziga xos xususiyatlari.**

Ilk o'rtaasrlar davrida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarning arxeologik yodgorliklarda aks etishi. Ilk o'rtaasrlarda yer egaligining vujudga kelishi. Ko'shklar. Xunarmandchilik; kulolchilik va shishasozlik, to'qimachilik, metallsozlik, zargarlik, duradgorlik. Ichki va tashqi savdo. Ilk o'rtaasrlarda shahar hunarmandchiligi. Rivojlangan o'rtaasrlar davri shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi. Quva. Hunarmandchilikning turli yo'nalishlarida ishlab chiqarishni tashkil etish va ixtisoslashish jarayoni. Rivojlangan o'rtaasrlar davrida tovar-pul munosabatlari. Islom dinining shahar me'morchiligidagi ta'siri; masjidlar, minoralar, maqbara, karvon saroy, sardoba, xonaqoh va boshqalar. Shahar obodonchiligi va bozorlar. Hunarmandchilik va kulolchilikda yangi izlanishlar.

#### **16-mavzu: O'rta asrlar davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.**

Mingo'rik, Shoxruxiya, Chilonzor Oqtepasi, Yunusobod Oqtepasi, Varaxsha, Panjikent. Koroplastika. Ismoil Somoniy maqbarasi. Arab-ota maqbarasi. Jarqo-ton minorasi. Vobkent minorasi. Raboti Malik kavon saroyi. Temuriylar davrida madaniy taraqqiyot. Shaharsozlik va hunarmandchilik. Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy. Oq saroy. Ulug'bek rasadxonasi. Bibixonim masjidi. Shohi Zinda.

### **1- modul. Etnologiya fani nazariyasi**

#### **1-mavzu: Fanning mohiyati va ko'pqirrali ijtimoiy gumanitar fan sifatida uning tadqiqot ob'ekti**

Mustaqil fan sifatida Etnologiyaning paydo bo'lish tarixi va ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'mi. Turli ilmiy maktablar va mamlakatlarda etnologik terminlar va iboralar. «Etnologiya», «madaniy antropologiya» tushunchalari haqida. Etnologiyaning turli yondosh fanlar bilan aloqalari. Etnoekologiya, etnosotsiologiya, etnopsixologiya, etnofolkloristika, etnoarxeologiya, etnozoologiya sohalari haqida. Fandagi asosiy uslub va metodlar. Tarixiy va zamonaviy Etnologiya hamda Etnologiyaning bugungi dolzarb muammolari.

Etnologiyani davrlashtirish. Xalqona etnografik tushunchalar va ularning ibtidoiy jamiyatda tutgan o'rni. Etnologiyani maxsus ilmiy o'rganishgacha bo'lgan davr. Faktlarni yig'ish, ilmiy ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish, dastlabki etnografik materiallarni yig'ish jarayoni va metodlari. Qadimgi va o'rta asrlarga oid etnografik materiallar. Buyuk geografik kashfiyotlar jarayonida etnografik materiallarni yig'ilishi. Tarix va geografiya fanlarida etnografik materiallarni jamlanishi. XVIII-asr va XIX-asrning birinchi yarmidagi etnografik tadqiqotlar. O'rta Osiyoga uyuştirilgan ekspeditsiyalar va sayohatlarda etnografik

materiallarning yig`ilishi. «Etnologiya» iboralarining kirib kelishi. Etnologik tadqiqotlarda tarixiy-qiyosiy metodlarning shakllanishi.

XIX-asning ikkinchi yarmida Etnologiyaning mustaqil fan sifatida namayon bo`lishi. Etnologiyaning mustaqil fan sifatida paydo bo`lish jarayonidagi ijtimoiy va ilmiy muhit.

XIX-asr ikkinchi yarmi va XX-asr birinchi yarmidagi etnologik ilmiy izlanishlar. Etnologiyadagi evolyutsion yo`nalishlar (L.G. Morgan, E. Taylor va boshq.). Rossiya Etnologiya (Etnologiya) maktabi va uning dune faniga qo`shgan hissasi (D.N. Anuchin, V.G. Bogoraz-Tan, Ch.Ch. Valixanov, N.N. Mikluxo-Maklay, G.N. Potanin, L.Y. Shternberg va boshq.). XX-asrni birinchi yarmida O`rta Osiyoni o`rgangan yirik mutaxasis olimlar (M.S. Andreev, S.P. Tolstov, A.L. Troitskaya, qozi Olim, L.P. Potapov, Ye.M. Peherova va boshq.) Amerikaning tarixiy Etnologiya maktabi (F. Boas). AQSh psixologik maktabi (R. Benedikt) va boshqa psixologik kontseptsiyalar. Neoevolyutsionizm. XX-asrning ikkinchi yarmidagi O`rta Osiyo va shu jumladan o`zbek xalqi Etnologiyasini o`rganish bo`yicha bajarilgan yirik tadqiqotlar. (O.A. Suxareva, K. Shoniyofov, T.A. Jdanko, V. Basirov, Q. Ismoilov va boshq.) XX -asr oxiri XXI-asr boshidagi etnogiya maktablari va ilmiy kontseptsiyalar. Etnologiyadagi yangi qarashlar va muammolar.

## **2-mavzu: Etnologiya fani predmeti va tadqiqot metodlari, nazariy muammolari va asosiy maktablari**

Etnologiyaning asosiy tadqiqot predmeti. Etnologiyaning insoniyat va jamoaning shakllanishidagi o`rnii va roli. XIX – XX asrdagi Etnologiya predmeti. Yurtimiz va xorijiy mutaxassislarning Etnologiya predmetiga oid qarashlar. Etnologik bilimlarning siyosiy, iktisodik, madaniy xayot va dunyoqarash va mafkuraviy qarashlar taraqiyotidagi o`rnii. Etnologiya manbalari va metodlari. Dala tadqiqotlari va ularning turlari. Dala tadqiqotlarining obektivligi va subektivligi. Arxiv va muzey materiallari. Dala tadqiqotlari olib borish metodikasi. Etnografik ekspeditsiyalari turlari. «Etnografik yil» iborasining mazmun-moxiyati. Muzey va yozma manbalar bilan ishlash metodlari. Etnologiyada informatsion tizim va kibernetika.

Etnologiyaning asosiy yo`nalishlari va maktablari. Zamonaviy Etnologiya fanining nazariy muammolari. Sotsiologiya maktabi va funksionalizm. Etnopsixologiya maktabining shakllanishi. Etnos nazariyasi bilan bog`liq nazariy qarashlar. Primordializm va konstruktivizm. Etnogenez va etnik tarixga oid vatanimiz olimlarining nazariy-metodologik qarashlari. Etnologiyadagi yangi kontseptsiyalar va postmoderinizm kontseptsiyasi.

## **2-modul. Dunyo xalqlari etnologiyasi**

### **1-mavzu: Dunyo xalqlari va o`zbeklarning an'anaviy mashg`ulotlari, xo`jalik faoliyati**

Xo`jalik mashg`ulot turlarini paydo bo`lishi. Insoniyatning eng qadimgi mashg`uloti. Ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik. Dehqonchilik mashg`uloti va dehqonchilik madaniyatining shakllanishi, hamda uning o`ziga xos xususiyatlari.

An'anaviy sug'orma va lalmi dehqonchilik. Dehqonchilik bilan bog'liq marosim va urf odatlarning paydo bo'lishi va shakllanishi. O'rta Osiyo zaminida dehqonchilik turlari. Ziroatchilik xo'jaligi va an'anaviy agrotexnika. Chorvachilik. Chorvachilikning rivojlanish bosqichlari. Ko'chmanchi chorvavchilik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Ekstensiv va xonaki chorvachilik. Xo'jalik madaniy tiplari, O'troq, Yarim o'troq, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi turmush-tarzi. Mehnat qurollari-omoch, bel, ketmon, o'roq, panchshaxa. Don ekinlari va boshqa ekinllar agrotexnikasi. Dehqonchilik marosimlar. Chorvachilik udumlari va rasm-rusumlari.

O'zbeklarning an'anaviy mashg'ulotlari, xo'jalik faoliyati, o'zbeklarning dehqonchilik madaniyati, ziroatchilik xo'jaligi. qadimiy choryachilik

### **3-modul. Etnologiyada «madaniyat» tushunchasi.**

#### **1-mavzu: Etnologiyada an'anaviy moddiy hamda ma'naviy madaniyat**

Etnologiyada «madaniyat» tushunchasi va uning o'ziga xos ta'rifi. An'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyat turlari. Moddiy madaniyat etnik jamoa turmush tarzining asosiy ko'rsatkichi. Xalq an'anaviy moddiy madaniyati etnogenez va etnik tarixni o'rganishda ham muhim manba tarzda. An'anaviy moddiy madaniyatga geografik sharoit, milliy ruhiyatning ta'siri. O'rta Osiyo zaminida moddiy madaniyat na'munalarini rivojlanish bosqichlari. Dunyo halqlari moddiy madaniyati- turar joyi, uyi jihozlari, kiyim-kechagi va bezaklari, taomlari va ro'zg'ori buyumlarining o'ziga xos xususiyatlari.

An'anaviy turar-joylar. Uy joy tipologiyasi, qurilish materiallari va konstruktsiyasi, ichki planirovkasi, o'chog'i va uni o'rnatish qonun qoidalari, uydagi buyumlarning xillari va jihozlanish va shu kabilar.

An'anaviy kiyimlarning ta-rixiy taraqqiyot bosqichlari. Kiyimlarda turli xalqlarning ijtimoiy- iqtisodiy holatini ko'rsatib beruvchi muhim etnografik manba. Kiyim-kechaklarda boshqa xalqlar bilan qay darajada etnomadaniy aloqadani aks etishi. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarning kiyimlari shakllanishidagi farqli jihatlar. XIX-XX asr boshlarida o'zbek xalqining an'anaviy kiyimlari. Bolalar, ayollar va erkaklar kiyimlarning o'ziga xos xususiyatlari.

Dunyo xalqlarida taom tayyorlash an'ansi va madaniyatini shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Taom tayyorlashda xalq turmush tarzi, urf-odatlari, mehnat faoliyati qiyofasi va iqlim va etno-madaniy jarayonlarning ta'siri.

Dunyo xalqlarida taom tayyorlash texnologiyasining o'ziga hos jihatlari. O'zbek milliy taomlari.

### **4-modul. Jahon xalqlari**

#### **1-mavzu: Jahon xalqlari klassifikatsiya tamoyillari**

Jahon xalqlarining geografik, antropologik, lingvistik, klassifikatsiyasi. Xo'jalik – madaniy tiplar, tarixiy etnografik oblastlar.

## **2-mavzu: Avstraliya va Okeaniya xalqlarining tabiiy geografik sharoiti, etnogenezi va etnik tarixi muammolari.**

Avstraliya va Okeaniyaning tarixi – madaniy rayonlarga bo linishi. Avstraliya va Tasmaniya xalqlari tarixiy joylanishi va ularning mustamlakachilik davriga qadar hamda mustamlakachilik davridagi hayoti. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi

## **3-mavzu: Polineziya, Yangi Zelandiya, Melaneziya, Yangi Gvineya, Mikroneziya xalqlari**

Polineziyalaiklarning kelib chiqishi va Polineziya orollarida joylanishi haqidagi gipoteza va rivoyatlar. Antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi. Tub aholining an'anaviy mashg'ulotlari. Oila va nikoh munosabatlari. Ilk davlatchilik shakllanishining jarayoni. Ma'naviy madaniyat. Ilk yozuvning shakllanishi. qadimgi diniy tushunchalar. Xalq og'zaki ijodi.

Melaneziya va Yangi Gvineya orollarida tub aholining joylanishi, etnogenezi va tarixiy jarayoni, Antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi. Dohiyalar roli haqida. "Manu" g'ayri tabiy kuchi haqida.

Mikroneziya mahalliy elat va xalqlarning etnogenezi va joylashish jarayoni. Antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi. Tarixiy etnografik oblastlar va xo'jalik va madaniy tiplar. Etnogenetik va migratsiya muammolari. Oila, nikoh va ijtimoiy munosabatlari moddiy va ma'anaviy madaniyat. Xalq ijodi

## **4-mavzu: Osiyo xalqlari**

Tarixning turli davrlarida harbiy Osiyo xalqlarining etnogenetik jarayoni va etnik tarixi. Xo'jalik-madaniy tiplar. O'troq dehqonchilik va ko'chmanchi elat va xalqlari sotsial iqtisodiy va maishiy turmushi munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari tub aholining moddiy madaniyati. Kavkaz xalqlari. Antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi. Etnogeneti muammosi. Oila – nikoh va ijtimoiy turmush. Ma'naviyat va din. Islom, yaxudiylik, xristianlik, qadimiy diniy sarhitlar

## **5-mavzu: Amerika xalqlari etnologiyasi**

Yevropa kolonizatsiyasiga Amerikaning tubjoy aholisi. Amerikaning tubjoy axolisining kelib chikish tarixi. Mahalliy xindularning antropologik tavsifi. Amerika axolisini xo'jalik, til va madaniy klasifikatsiyasi. Zamona viy Amerika axolisi va axolining etnik tarixi. Aborigenlar va Yevropaliklar. Migratsiya va etnomadaniy aloqalar. Amerikaning zamona viy axolisining etnik tavsifi. An'anaviy zamona viy turar-joylar, taomlar va kiyim-kechaklar. Migratsion jarayonlar. Madaniyatdagi integratsion jarayonlar. Zamona viy Amerika jamiyatida etnik va madaniyat muammosi. Amerikada kamsonli etnoslar va etnografik guruhlar muammosi. Zamona viy etnomilliy mojalar muammosi va ularni yechish yo'llari

## **6-mavzu: Yevropa xalqlari Etnologiyasi**

Yevropa axolisining etnogenezi va etnik tarixi. Frantsuz, nemis, frantsuz va boshqa Yevropa millatlarini shakllanish jarayoni. Eng qadimgi va antik davrda

Yevropaning etnografik xaritasi. Nalqlarning buyuk ko'chishi. German, kelt va slavyanlarning qo'shilip ketishi. O'rta asrlarda va yangi xamda eng yangi davrda etnik jarayonlar. Milliy konsolidatsiy. Axolining zamonaviy tarkibi. Maxalliy axolining milliy-etnik moddiy va ma'naviy madaniyati Yevropa axolisining demografik axvoli. Antropologik va tiliga oid tasnifi. Yevropa xalqlarining diniy mansubligi muammosi.

Xo'jaligi va moddiy madaniyati. Xo'jaliklarning mintaqaviy taraqqiyoti. Chorvachilik va dehqonchilik. Baliqchilik va bog'dorchilik.

An'anaviy turar-joylar va milliy taomlardagi o'ziga xoslik. Yevropa milliy liboslari taraqqiyoti. Kiyimlar bichimi va tikilishida Yevropaga xos xususiyatlari. Jamoaviy va oilaviy turmush-tarzi va bayramlari

### **7-mavzu: Osiyo va Afrika xalqlari Etnologiyasi**

Osiyo va Afrika mintaqasi axolisi etnogenezi va etnik tarixi. Mintaqalarning shakllanish jarayoni. Antik davrda Afrika va Osiyonning etnografik xaritasi. O'rta asrlarda va yangi xamda eng yangi davrda etnik jarayonlar. Milliy konsolidatsiy. Axolining zamonaviy tarkibi. Maxalliy axolining milliy-etnik moddiy va ma'naviy madaniyati Afro-osiyo aholisining demografik axvoli. Antropologik va tiliga oid tasnifi.

Xo'jaligi va moddiy madaniyati. Xo'jaliklarning mintaqaviy taraqqiyoti. Chorvachilik va dehkonzilik. Baliqchilik va bogdorchilik.

An'anaviy turar-joylar va milliy taomlardagi o'ziga xoslik. Yevropa milliy liboslari taraqqiyoti. Kiyimlar bichimi va tikilishida Yevropaga xos xususiyatlari. Jamoaviy va oilaviy turmush-tarzi va bayramlari

### **8-mavzu: O'zbek xalqi Etnologiyasi**

O'zbeklarning etnogenezi va etnik tarixi muammosi. O'zbeklarni aloqida etnik jamaa (elat) bo'lib birlashushi. O'zbeklar etnogenezida qatnashgan muhim etnik komponentlar. O'zbek xalqi kecha, bugun va ertaga.

O'zbek milliy madaniyatining shakllanish jarayoni. An'anaviy milliy moddiy va ma'anaviy madaniyat muammosi. O'zbeklarning millat sifatida rivojlanishi. O'zbek etnonimi. O'zbek xalqi antropologiyasi va an'naviy xo'jalik munosabatlari. Zamonaviy o'zbeklar. Madaniyatlarning uyg'unlashuvi. Ana'anaviy o'zbek taomlari, kiyim-kechaklari va turar-joylari.

### **9-mavzu: O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari**

Tarixiy-etnografik guruhlari. Etnogenet muammolari va etnik tarixi. Etnogenet jarayonlar: elat va xalqlarning qo'shilishi, aralashishi va umumiyl xususiyatlari. Lingvistik, antropologik klassifikatsiyasi. O'rta Osiyo va Qozog'iston aholisining hozirgi etnik qiyofasi va o'ziga xos xususiyatlari.

### **5-modul. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni**

### **10-mavzu: O'zbek xalqining shakllanish jarayoni**

O'zbek xalqining etnik tarixiga va etnogeneziga oid manbalar va tarixiy ma'lumotlar. O'zbek elating ilk ajoddlari. O'zbek xalqi etnegezining tarixiy

bosqichlari. O'zbeklarni etnik birlik (elat) bo'lib shakllanish jarayon. Etnogenez va etnik tarixning nazariy metodologik muammolari. O'zbeklarning xalq bo'lib shakllanish bosqichlari. O'zbeklarning xalq tarzda shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar. O'zbek elatining shakllanish jarayonida faol qatnashgan asosiy komponentlar. O'zbek etnonimi tarixi. O'zbeklar xalqining etnik tarixi.

#### **IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Paleolit davri xususiyatlari
2. Mezolit davri va uning o'r ganilishi
3. Neolit davri va uning o'r ganilishi
4. Eneolit davri xususiyatlari
5. Bronza davri va uning o'r ganilishi.
6. So'nggi bronza va ilk temir davri
7. Qadimgi davr madaniyati.
8. O'rta asrlar davri madaniyati.
9. Etnologyaning mohiyati va asosiy tushunchalari, tarixi va istiqbol yo'naliishlari
10. Etnologiya fani predmeti va tadqiqot metodlari, nazariy muammolari va asosiy maktablari
11. Juhon xalqlari klassifikatsiya tamoyillar
12. Osiyo xalqlari
13. Amerika xalqlari etnologiyasi
14. Afrika xalqlari etnologiyasi
15. Avstraliya va Okeaniya xalqlari
16. Yevropa xalqlari etnologiyasi
17. O'zbek xalqi etnologiyasi
18. O'zbek xalqini shakllanish jarayoni

Seminar mashg'ulotlar multimedya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruh yoki bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **V. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Rossiya arxeologiyasi
2. Yevropa arxeologiyasi
3. Amerika arxeologiyasi
4. Afrika arxeologiyasi
5. Sharqiy va janubiy Osiyo arxeologiyasi

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruh yoki bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## **VI. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Arxeologik topilmalarning yoshini aniqlash uslublari
2. Madaniy qatlarni va uning tadqiq qilish uslublari
3. Tosh qorollarining ishlanish uslublari.
4. Sopol buyumlar va ularning ishlanish uslublari
5. Yozuvlar tarixi

Laboratoriya mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruh yoki bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## **VII. Mustaqil ta'lif va mustaqil ish Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Arxeologik tadqiqot uslubiyati
2. Arxeologik ekspedisiyasi va uning faoliyati
3. Ibtidoiy diniy e'tiqodning arxeologik manbalardagi izlari
4. Arxeologik madaniy qatlarni
5. Davrlashtirish masalalari.
6. Hozirgi bosqichda arxeologiya fani oldida turgan vazifalar va muammolar
7. Qoya tosh suratlarining ishlanish uslublari.
8. Teshiktosh yodgorligi
9. Mezolit davri yodgorliklari.
10. Neolit davri yodgorliklari
11. Eneolit davri
12. Bronza davri yodgorliklari.
13. So'nggi bronza davri yodgorliklari.
14. Ilk temir davri yodgorliklari.
15. O'zbekiston hududidagi ilk shaharlar.
16. Qadimgi Misr madaniyati
17. Qadimgi Mesopotomiya madaniyati
18. Qadimgi Hind madaniyati
19. Qadimgi Grek madaniyati
20. Qadimgi Rim madaniyati

21. Etnologiyaning mohiyati va asosiy tushunchalari, tarixi va istiqbol yo'nalishlari
22. Etnologiya fani predmeti va tadqiqot metodlari, nazariy muammolari va asosiy maktablari
23. Jahon xalqlari klassifikatsiya tamoyillar
24. Osiyo xalqlar
25. Amerika xalqlari etnologiyasi
26. Afrika xalqlari etnologiyasi
27. Avstraliya va Okeaniya xalqlari
28. Yevropa xalqlari etnologiyasi
29. O'zbek xalqi etnologiyasi
30. O'zbek xalqini shakllanish jarayoni

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## **VII. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. -T.: 2004.
2. Egamberdieva N., Arxeologiya (o'quv qo'llanma). – T.: "Fan va texnologiya" 2011.
3. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya (O'quv qo'llanma). – Toshkent: iqtisod-moliya, 2008.
4. Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari. – T., 2005
5. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – T., 1994.
6. Jabborov I. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T., 2007.
7. Jabborov I. O'zbeklarning turmush-tarzi va madaniyati. – T., 2003.
8. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. - T., 2001.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

9. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
10. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.
11. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
12. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 104 b.

- 13.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
14. «O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondashuvilar, etnogenetik va etnik tarix» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy seminari materiallari. - T., 2004.
15. Алексеев В.П. Этногенез. - М., 1996.
16. Anorboyev A. Islomov O'. Matboboyev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. — Т.: "Fan", 2000.
17. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Т.: "Fan", 2001.
- <sup>18</sup> Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari //O'zbekiston tarixi. 2002. № 4. – B. 54-60.
19. Asqarov A.A. O'zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari //O'zbekiston tarixi 2002. № 4.
20. Bo'riyev O., Shoymardonov I., Nasriddinov Q. O'zbek oilasi tarixi. - Т.: O'qituvchi, 1995. -128 b.
21. Doniyorov A., Ashirov A., Bo'riyev O. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyası, etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent, "Yangi nashr", 2011.
22. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
23. Egamberdiyeva N. Arxeologiya (metodik qo'llanma). -Т.: "Universitet", 2008.
24. Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.
25. Этнологий. Учебник для высших учебных заведений. Под ред. А.П Садохина. - М., 2000.
26. Этнология /Под. ред. Г.Е. Маркова и В.В. Пименова. – М., 1994.
27. Галперина Г.А., Доброда Е.В., Популярная история археологии. – М.: "Высшая школа", 2002.
28. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера земли. - Л., 1992.
29. Жабборов И.М. Ўзбекларнинг турмуш тарзи. - Т.: Ўқитувчи, 2003. – М.: "Высшая школа", 2002.
30. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. - Т.: Fan, 1993. - 240 b.
31. Малиничев Г. Археология по следам легенд и мифов. – М.: Вече, 2006.
32. Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. 1-qism. - Т., 2005.

#### Internet saytlari

- 33.[www.tdbu.uz](http://www.tdbu.uz)
- 34.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 35.[www.Zivonet.uz](http://www.Zivonet.uz)
- 36.[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

